



# UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 09.04.2025  
<https://universaljurnal.uz>



**International indexes**

**GOOGLE SCHOLAR**

**CROSSREF (OAK BAZA)**

**ZENODO**

**OPEN AIRE**

**EUROPUB**

**RESEARCHGATE (OAK BAZA)**

**SJIF**

## KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI ERTAKLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

**Ravshanova Madina Zafarjon qizi**

University of Business and Science

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Uzbekistan**

[ravshanovamadinabonu05@gmail.com](mailto:ravshanovamadinabonu05@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola kichik maktab yoshidagi inklyuziv bolalarning motivlarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va psixologik yondashuvlarning ahamiyatini o'rganadi. Maktabda inkluziv ta'limni amalga oshirishda, o'quvchilarning motivatsiyasi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda pedagogik metodlarning ahamiyati yoritilgan. Maqolada inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va psixologik yondashuvlarning motivatsion jarayonlardagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotlar natijalariga asoslanib, inklyuziv ta'limda motivatsiyani shakllantirish uchun samarali uslublar va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, ertak, maqol, qayta hikoya qilish, sahnalashtirish, kichik yoshdagi bolalar.

**Аннотация:** В данной статье высказаны мнения об успешном развитии речи только на основе овладения системой мыслительной деятельности. Отмечено, что устная речь относительно формируется в процессе перехода от начального класса к 5-му классу. Таким образом, в статье показано, что развивать речь детей младшего школьного возраста посредством сказок очень легко, а при таком развитии речи увеличивается словарный запас ученика.

**Ключевые слова:** речь, сказка, пословица, пересказ, инсценировка, дети раннего возраста.

**Abstract:** In this article, opinions are expressed about the successful development of speech only on the basis of mastering the system of mental activity. It was mentioned that oral speech is relatively formed in the process of transition from the primary grade to the 5th grade. Therefore, the article shows that it is very easy to develop the speech of children of small school age through fairy tales, and the vocabulary of the student increases when the speech is developed in this way.

**Keywords:** speech, fairy tale, proverb, retelling, dramatization, young children.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Ravshanova, M. (2025). DEVELOPING SPEECH IN YOUNG CHILDREN THROUGH FAIRY TALES. Universal International Scientific Journal, 2(4), 38–41. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1487>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15188512>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Odatda, psixologik adabiyotlarda keltirilishicha kichik maktab yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bolgan davrni ichiga oladi. Lekin bu yosh davrga ajratish prinsipi qat'iy va mutlaq degan fikr emas, albatta. Chunki xalq ta'limi tizimida yuz beradigan ayrim o'zgarishlar bunga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Jumladan, bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotgan paytdan boshlab tayyorgarlik ko'ra boradi, buning uchun u, dastavval ta'lim tarbiya tomonidan o'quvchi shaxsi oldiga qo'yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishadi, undan tashqari u fan asoslarini egallash uchun ham biologik, jismoniy, ham psixologik jihatdan qariyb yetilgan, jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nutq fikrni bayon etish vositasi

bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beradi. Nutqning ikki xil shakli bor:

1.Og`zaki nutq;

2.Yozma nutq; [1.27.]

Og`zaki nutq ham ijod jarayoni. Unda inson favqulodda noyob fikr, g`oyalarni, badiiy ifodalarni kashf etadi. Og`zaki nutqning qator vazifaviy ko`rinishlari mavjudki,ular kezi kelganda, yozma nutqga jilo beradi. Og`zaki nutq

boshlang'ich sinfdan yuqori, ya'ni 5-sinfga o'tish jarayonida nisbatan shakllanib boradi. Bu yoshdagi maktab o'quvchilarining og'zaki nutqi eng sodda ko'rinishda bo'ladi, ular o'zlari uchun doimiy hamroh bo'lgan so'zlaridan foydalangan holatda nutq jarayonini amalga oshiradilar. Ularda og'zaki nutqni shakllantirish uchun eng yaxshi usullardan biri bu, bolalarga ertaklar, maqollar, topishmoqlarni ko'p aytirishdir. Bola qanchalik ko'p ertak, maqol va topishmoqlar, tez aytishlarni bilsa, shuncha uning so'z boyligi ko'p bo'ladi. Qayta hikoya qilish - hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish badiiy asarlarni ma'noli og'zaki nutqda takror aytishdir. Qayta hikoya qilish bolalar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga o'rgatadi, jonli so'zlarni egallashga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'stiradi, asarni tushunib, jamoa oldida og'zaki aytib bera olish malakasini shakllantiradi. Qayta hikoya qilish talablari haqida mutaxassislar o'z fikrlarini quyidagicha bayon qiladilar. Qayta hikoya qilish uchun asar tanlanganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g'oyaviy-mantiqiy yo'nalishga ega bo'lishi, jo'shqinligi, fikrning yangililigi va bayonning obrazlilik, voqealarning ketma-ketlilik, mazmunning qiziqarliligi.[2.80] Bola nutqni rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi

muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir.[4.14]. Bolalar kundalik hayotdagi faoliyatlarida nutqdan mustaqil ravishda foydalanadilar.

Bolalarda 1-sinfda og'zaki nutqni yana bir samarali o'stirish usullaridan biri bu rasmga qarab matn tuzish hisoblanadi. Bola qanchalik rasmga qarab shuncha ko'p so'zlar orqali nutq tuzsa, uning ijodkorligi o'sadi. Va shu so'zlarni eslab qolishi ham osonlashadi.



Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishini tashkil etish demakdir. [3.10] Boshlang'ich ta'limdagi bolalarni nutqini ertaklarni sahnalashtirish orqali rivojlantirish. Buning uchun o'qituvchi birorta ertakni sahnalashtirib, bolalarga ertakdagi rollarni bo'lib berish orqali bajaradi. Bola qanchalik rolga kirishib ketsa, har bitta hayvon yoki qahramonlarning ovozini o'xshatishga harakat qiladi. Bu esa, bolalarning nutqini qiziqtirib o'stirishda juda qulaydir. Masalan, ertakda buvijonning ovozini o'xshatish kerak bo'lsa, bola buvijonni ovozini juda yaxshi o'xshatishga harakat

qiladi.



Yuqoridagi rasmda shuni ko`rish mumkinki, buvi va nabira suhbatini

tasvirlangan. Suhbat jarayonini sahnalashtirishda rol ijro etayotgan o`quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini, ovozlari o`xshatishga harakat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqni ertaklar orqali rivojlantirish juda qulaydir. Nutqni bu usulda rivojlantirilganda o`quvchining so`z boyligi ham oshadi. Agar bola kichik yoshidan boshlab to`g`ri gapirishga o`rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola normal holatda rivojlanadi, ya`ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati va so`zlash paydo bo`ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yo`ldosheva D.N. Hozirgi o`zbek adabiy tili // Toshkent – 2021 . Zebo print. 419 b.
2. Babayeva D.R. Nutqni o`stirish nazariyasi va metodikasi.[Darslik]- Toshkent.: "Barkamol fayz media", 2018, -432 b.
3. Shodiyeva.Q. Nutqni o`stirish uslubiyoti.[Darslik]- Toshkent.: "O`qituvchi", 2008, -303 b.
4. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. – 1972. -№ 9. С.95–108. 9 Ушинский К.Д. Родное слово. // Собр.соч. - Мб.
5. Rakhmonova, N. V. (2023). About the teaching method and skills of mathematics. Science and Education, 4(5), 1137-1139.